

Annotatsiya: Mazkur maqolada elektr energiyasini ishlab chiqarish, yetkazib berish va iste'mol qilish jarayonidagi yo'qotishlar hamda ta'minotdagi uzilishlar natijasida yuzaga keladigan iqtisodiy zararlar tahlil qilingan. Tadqiqotda elektr energiyasining tijorat yo'qotishlarini buxgalteriya hisobida alohida ob'ekt sifatida aks ettirish, "Tijorat elektr yo'qotishlari" maxsus subschyotini joriy etish metodologiyasi ilgari surilgan. Shuningdek, elektr uzilishlarining to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita iqtisodiy xarajatlari, ularning milliy iqtisodiyotga va investitsiya muhitiga salbiy ta'siri ko'rib chiqilgan. Maqolada xalqaro tajriba va standartlar asosida yo'qotishlarni minimallashtirish hamda hisob tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy takliflar bayon etilgan.

Kalit so'zlar : Elektr energiyasi, uzilishlar xarajati, tijorat yo'qotishlari, buxgalteriya hisobi, subschyot, iqtisodiy zarar, investitsiya muhiti, taqsimlovchi tarmoqlar, texnik yo'qotishlar.

Mutaxassislarining hisob-kitoblariga ko'ra, O'zbekistonda quyosh stansiyalarini qurish orqali jami 600 milliard kiloVatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarish imkoniyati mavjud. Bu respublikamizning bugungi kunda energiyaga bo'lgan jami ehtiyojidan 8 barobar ko'p bo'lib, 2030-yilga borib quyosh elektr stansiyalari quvvatini kamida 5 ming, shamol elektr stansiyalari bo'yicha esa 3 ming megaVattga yetkazish reja qilingan.

Sanoat ishlab chiqarishining kengayishi hisobiga 2025-yilda importning amaldagi qisqarishi 3,66 million AQSH dollarini tashkil qilib, 2024-2026-yillarda import xajmini kamaytirish uchun tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha loyihalar ro'yxati shakllantirilib, amaliy ishlar olib borilmoqda.

Shuning bilan birga elektr energiyasini ishlab chiqarishining kengayib borishi, sotish xarajatlarining turkumlanishi hamda elektr energiyasini yetkazib berish bilan bog'liq yo'qotishlarni buxgalteriyada hisobga olish metodologiyasini takomillashtirish davr talabi bo'lib qolmoqda. Biroq, amaldagi hisob metodologiyasining bir qancha kamchiliklari mavjud bo'lib ular quyidagilardan iborat:

1. Elektr energiyasining yetkazib berish bilan bog'liq yo'qotishlari buxgalteriya hisobining alohida hisob ob'ekti sifatida aks ettirilmasligi;
2. Tijorat yo'qotishlarini standartlashtirish e'tiborga olinmagan, elektr energiyasining tijorat yo'qotishlari tarkibiy qismlarining miqdorlari alohida ajratilmaydi va

shuning uchun zarur hollarda buxgalteriya hisobi tizimida mustaqil ko'rsatkichlar (buxgalteriya hisobi ob'ekti) sifatida aniq ko'rsatilishi imkoniyatining mavjud emasligi:

3. Amaldagi buxgalteriya hisob tizimi elektr energiyasining ijro balansida aks ettirilgan ma'lumotlarni boshqarish uchun to'liq va yetarli axborot ta'minotini shakllantirishga imkon bermaydi. Bunda yo'qotishlarning haqiqiy hajmi, sabablari, aybdorlari va ko'lamini bilmasdan turib, ularni bartaraf etish va minimallashtirish ob'ektiv ravishda imkonsizligi.

Bu holda buxgalteriya hisobining asosiy vazifasi boshqaruv ma'lumotlarini qo'llab-quvvatlash tizimida tijorat yo'qotishlarini aniq ta'kidlashdir. Buni "Elektr energiyasi yo'qotishlari" maxsus sintetik hisobi yordamida amalga oshirish mumkin, uning rivojlanishi sifatida "Tijorat elektr yo'qotishlari" subschyoti ochish talab etiladi. "Elektr energiyasining tijorat yo'qotishlari" subschyotining analitik hisobi elektr yo'qotishlarining turlari bo'yicha standart va ortiqcha yo'qotishlarga bo'linish bilan amalga oshirilishi kerak.

"Elektr energiyasining tijorat yo'qotishlari" subschyotini joriy etish bo'yicha taklifning mantiqiy davomi energiya ta'minoti tashkiloti uchun alohida xarajat moddasini "Elektr energiyasining tijorat yo'qotishlari" ni ajratish zaruriyati hisoblanadi. Buxgalteriya hisob tizimida "Elektr energiyasining tijorat yo'qotishlari" maxsus subschyotidan foydalanish bo'yicha taklif quyidagilarga imkon beradi:

1. Buxgalteriya hisobi tizimida elektr energiyasining standartlashtirilgan va standartlashtirilmagan tijorat yo'qotishlarini aks ettirish uchun ushbu ob'ektlar buxgalteriya hisobi tizimida alohida qayd etiladi;
2. Buxgalteriya hisobida elektr energiyasining tijorat yo'qotishlarini hisobdan chiqarish yo'nalishi aks ettiriladi.
3. Qiymat jihatdan elektr yo'qotish turlari bo'yicha ko'rsatkichlarni shakllantirish maqsadida elektr energiyasining tijorat yo'qotishlarining tarkibiy qismlarini mustaqil ob'ektlar sifatida ajratib olish imkoniyati yaratiladi.

Elektr energetikasini isloh qilishning zamonaviy sharoitida buxgalteriya hisobi ma'lumotlarining foydalilik darajasini oshirish uchun ma'lumotlarni tizimlashtirish va to'plash tartibini ratsionalizatsiya qilish, ya'ni iqtisodiy ko'rsatkichlarni aks ettirish jarayonini takomillashtirish zarur. Buni joriy etish uchun alohida sintetik schyot bo'yicha ko'rsatilgan ko'rsatkichni shakllantirgan holda mustaqil hisob ob'ekti sifatida energiya

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 03. Issue 01. January 2026

ta'minoti tashkilotlarida hisobga olishda elektr energiyasi yo'qotishlarini ajratish taklifi yordam beradi. Kiritilgan "Elektr energiyasini yo'qotishlari" hisobvarag'iga buxgalteriya yozuvlarini yozish uchun unga ma'lum bir raqamni belgilash lozim.

Har bir elektr energetika tizimi o'z iste'molchilarini eng past narxda va maqbul ishonchlilik darajasida elektr energiyasi bilan ta'minlashni ko'zlaydi. O'rtacha narxda ishonchli elektr ta'minotining mavjudligi iqtisodiy jihatdan kafolatlansa, elektr ta'minotidagi uzilishlarni yuzaga kelishi hech qanday kutilmaganda sodir bo'ladi, bu esa energiya tizimining ishonchliligini shubha ostiga qo'yadi.

Elektr to'liq yo'qolib qoladigan o'chirish yoki to'liq uzilish-bu bo'ronlar, yer qimirlashi, avtoxalokatlarda, suv toshqinlari va boshqa sabablardan kelib chiqadigan xizmatni qisman yoki to'liq yo'qotishdir. Uch fazali elektr energiyasi bilan ta'minlangan tizimlar, agar bir yoki bir nechta fazalar bo'lmasa yoki kuchlanish pasayganda yoki noto'g'ri fazada bo'lsa, ishdan chiqadi.

Elektr uzilishi bu rejadan tashqari va kutilmagan uzilishdir. Elektr uzilishlarining quyidagi salbiy oqibatlari farqlanadi:

1. To'g'ridan-to'g'ri iqtisodiy xarajatlar masalan, qayta ishga tushirish xarajatlari, elektr yo'qotishlari, uskunalarda va xom-ashyo materiallarning buzilishidan zararlar.
2. Bilvosita iqtisodiy xarajatlar masalan, daromadni kechiktirish va bozor ulushini yo'qotish natijasida moliyaviy xarajatlar.
3. Ijtimoiy ta'sirlar masalan, iste'molchilarning farovonligini yo'qolishi, ofis yoki uydagi noqulaylik vujudga kelishi, bo'sh vaqtni yo'qotish, sog'lik va xavfsizlik xavfi va xokazo.

Mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasining taxminan 0.60-0.70 foizi elektr stansiyalari generatorlaridan chiqib elektr tarmog'iga ulangunga qadar yo'qotiladi. Bunday yo'qotishlar texnik yo'qotishlar deb nomlanib, xalqaro miqyosdagi yo'qotishlar ko'rsatkichlaridan deyarli farq qilmaydi. Yuqori kuchlanishli magistral tarmoqlarning yo'qotishlari hajmi o'rtacha 2.5-2.6 foizni tashkil etadi. Magistral tarmoqlardagi mavjud yo'qotishlar ko'rsatkichlari xalqaro standart talablariga mos keladi. Ya'ni, dunyo miqyosida olib qaraydigan bo'lsak, bu ko'rsatkich me'yor darajasida deyishimiz mumkin.

Elektr energiya iste'molchilarga taqsimlovchi tarmoqlarga o'tganidan so'ng katta yo'qotishlarga duch kelmoqda. Nisbatan past kuchlanishli elektr tarmoqlaridagi yo'qotishlar 13-15 foizni tashkil qilmoqda. Bu yo'qotishlar jahon standartidan ikki

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 03. Issue 01. January 2026

barobar yuqoridir. Demak, elektr energiyasi yo‘qotishlarining katta qismi taqsimlovchi tarmoqlarga to‘g‘ri kelmoqda.

Rivojlangan iqtisodiyotlarda taqsimlovchi tarmoqlardagi elektr energiyasi yo‘qotishlari o‘rtacha 6-7 foizni, ishlab chiqaruvchidan iste‘molchiga yetib borgunga qadar umumiy elektr yo‘qotishlari hajmi 16-20 foizni tashkil etmoqda. Bu ko‘rsatkichni pasaytirish uchun nihoyatda ko‘p izlanishlar olib borishimiz hamda zamonaviy ilm-fan yutuqlaridan foydalangan holda yangi texnologiyalarni qo‘llash lozim bo‘ladi.

Mamlakatimizda rivojlangan mamlakatlar tajribasidan foydalangan holda 600dan ortiq standartlar o‘rganilib, qo‘llash uchun tayyor holatda saqlanmoqda. Biroq, bu ishlarni amalga oshirish uchun juda katta miqdorda kapital xarajatlar talab qilinadi.

Iqtisodiyotga jiddiy ta‘sir ko‘rsatishi sababli elektr ta‘minotidagi uzilishlarning oldini olish juda muhim vazifa hisoblanadi. Elektr uzilishidan ko‘rilgan zararlar, xarajatlar va yo‘qotishlarni o‘rganish hamda to‘g‘ri baholash, natijalarini buxgalteriya hisobida ob‘ekt sifatida aks ettirish lozimdir. Masalan, Elektr Energetikasi Tadqiqot Instituti (Electric Power Research Institute-AQSH) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, elektr ta‘minotidagi uzilishlar va u bilan bog‘liq muammolar har yili AQSH iqtisodiyotiga taxminan 100-119 milliard dollar miqdorida zarar keltirmoqda.

Elektr uzilishlarining iqtisodiyotga ta‘sirini baholash og‘ir va mashaqqatli masaladir. Elektr uzilishlari xarajatlari va yo‘qotishlarini baholashga qaratilgan ko‘plab izlanishlar elektr energiyasidan foydalanuvchilarning o‘zgaruvchan talab xususiyatlari tufayli keng ko‘lamli va ko‘rincha nomuvofiq hisob-kitoblarga olib keladi. Ko‘rilayotgan zararlar bir qancha omillarga, masalan uzilish quvvatining yuqoriligi, davomiyligi, vaqt, kun, uzilish xarakteri (bu kutilmagan bo‘ladimi yoki rejalashtirilgan), uzilish sodir bo‘lgan holat (ish vaqtida yoki ish vaqtdan tashqarida bo‘ladimi), mavsumda (yoz yoki qish oylari) va nihoyat iste‘molchining (sanoat, xizmat, aholi yashash joyi yoki qishloq xo‘jaligi) turlari.

Elektr uzilishlarining milliy iqtisodiyotga qanchalik ta‘sir qilishini albatta aniqlash lozim. Tez-tez elektr uzilishlari salbiy ta‘sir qilishi bilan birga xududdagi korxonalar va tashkilotlarga investitsiya qilishdan voz kechishga, shuningdek, yangi firmalarni mamlakatda joylashtirish yoki investitsiya qilishga to‘sqinlik qiladi. Tegishli elektr ta‘minotining yo‘qligi ish o‘rinlari yaratilish sur‘atini pasaytiradi, ish o‘rinlarining yo‘qolishini tezlashtiradi, uy xo‘jaliklari daromadlarini kamaytiradi va barcha boshqaruv

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 03. Issue 01. January 2026

darajalarida soliq tushumlarini pasaytiradi. 2019-yilda Zimbabveda elektr ta'minotidagi uzilishlar 1,8 milliard AQSH dollarini tashkil etgani aniqlangan. Olimlar tomonidan ilmiy adabiyotlarda elektr uzilishlari xarajatlarini baholashning turli usullari muhokama qilinganligiga qaramasdan, hech kim bu metodologiyalarning o'ziga xos foydalanish va qo'llanilishini hisobga olgan holda taqqoslashni ko'rib chiqmagan. Elektr uzilishlaridan ko'rilgan zararlar va yo'qotishlarni ob'ektiv baholashda tadqiqotchi tomonidan istalgan usul qo'llanilish mumkin. Faqatgina, qo'llanayotgan usulning ko'rsatkichlarni qamrov darajasi, tahlil uchun iqtisodiy va texnik ma'lumotlarning hajmi, holat sodir bo'lgan tarmoq(soha)ning o'ziga xos xususiyatlari, elektr uzilishlarining davomiyligi hamda takrorlanuvchanligi e'tiborga olinishi lozim. Har bir usul afzallik va kamchiliklardan holi emas. Shu sababli, yuqorida qayd etib o'tilgan usullardan foydalanish tadqiqotchi tomonidan erkin tanlanishi va imkon qadar aniqroq natijalarga erishishga qaratilgan bo'lishi lozim.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Gadoev E.F. Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni hisobga olish va soliqqa tortish. -T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», 2003
2. Ibragimov A.K., Karimov A.A. Xorij sarmoyalari buxgalteriya hisobi. – T.: «O'zbekiston», 1999. – 143 b
3. Эргашева Ш.Т. Международные стандарты финансовой отчетности. Учебник. – Т.: 2021 г. – 310 с
4. Xasanov B.A. Boshqaruv hisobi (Darslik) / Xasanov B.A., Xashimov A.A., – B.m.: –T.: «Iqtisod-moliya», 2005. – 306 s

**Research Science and
Innovation House**